

## O‘ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHUVINI KUCHAYTIRISH MASALALARI

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti*

*"Iqtisodiyot va menejment" kafedrası*

*assistenti Rajabov.B.M*

Moliyaviy globallashtirish sharoitida mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvni kuchaytirishda milliy iqtisodiyotdagi sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi va eksport salohiyati, mahsulotlarning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshlik darajasi, moliyaviy institutlarning xalqaro moliya bozorlaridagi ishtiroki, mamlakatning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalari va xalqaro integratsion jarayonlardagi faol ishtiroki kabi masalalar muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimi integratsiyasiga qo‘shilib borishini ta‘minlash, yuqori ilmiy sig‘imli mahsulotlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan loyihalarni amalga oshirishga xorijiy kapitalni keng jalb etish orqali mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, investitsiya siyosatini takomillashtirish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qulay shart-sharoit yaratish, milliy iqtisodiyotdagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyat infratuzilmasini yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Hozirgi davrda mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy strategiyasi import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan birga eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va o‘zining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish”<sup>27</sup> alohida ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi mamlakatimizdagi ishbilarmonlik muhitining yanada yaxshilanishini, korxonalar ishlab chiqarishiga xorijdan zamonaviy texnika-texnologiyalarni jalb etishni faollashtirishni taqozo etadi, bu esa o‘z navbatida mahsulotlar eksportini ko‘payishiga, umuman olganda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faol tarzda amaliyotga joriy etishga bo‘lgan talabni kuchaytiradi.

Xalqaro moliya tizimi – xalqaro moliyaviy resurslar majmuini va ularning harakatlanishini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Xalqaro moliya munosabatlari muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro darajada shakllantirilgan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Xalqaro moliya munosabatlari o‘ziga xalqaro valyuta munosabatlari, xalqaro kredit munosabatlari, xalqaro investitsiya munosabatlari, xalqaro savdo munosabatlari, xalqaro soliq munosabatlari, xalqaro lizing munosabatlari, mamlakatlar to‘lov balansini boshqarish, xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalar kabi munosabatlarni qamrab oladi. Globallashtirish jarayoni – jahon savdosining o‘sishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va

<sup>27</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining « 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida »gi Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son

kengayishi, kapitalning xalqaro oqimini rivojlanishi, xizmatlar va mahsulotlarning xalqaro harakati xalqaro moliyaning rivojlanishiga zamin yaratdi. Shuningdek, mazkur holat jahon moliya bozorlarining, xalqaro moliyaviy korporatsiyalarning yuzaga kelishiga, davlatlararo moliyaviy munosabatlarning va xalqaro moliyaviy faoliyatning boshqa jihatlarini murakkablashuviga olib keldi.

Xalqaro moliya tizimi o'zida obyektiv asosga ega bo'lgan moliyaviy munosabatlarni ifodalaydi. Xalqaro moliya tizimidagi munosabatlarning moddiy asosi bo'lib mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladigan xalqaro moliyaviy oqimlar, jumladan, pul oqimlari – import qilingan mahsulot va xizmatlarning to'lovlari hamda mahsulot va xizmatlar eksportidan kelgan valyuta tushumlari, ushbu oqimlar xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasini ifodalashi mumkin, lekin ular turli mamlakatlarga tegishli bo'ladi, shu boisdan mamlakatlar o'rtasidagi pul oqimlari harakatini namoyon etadi. Shuningdek, kredit mablag'lari oqimi ham ikki tomonlama bo'lib hisoblanadi, bir tomondan qarzni berilishi bo'lsa boshqa tomondan esa, uning qaytarilishi va foizlarning to'lanishi namoyon bo'ladi. Shunday qilib, mazkur oqimlar asosida moliyaviy resurslarning mamlakatlar o'rtasidagi harakati yuzaga keladi. Ularning taqsimlanishi bir tomondan valyuta kurslari asosida ikkinchi tomondan esa, bojxona tariflari asosida boshqariladi.

Moliyaviy resurslarning muayyan qismini xalqaro darajada markazlashuvi jahon xo'jaligi ehtiyojlarini ta'minlaydi, bunday resurslarni shakllantirishning iqtisodiy shart-sharoitlari bo'lib, iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi, turli sohalaridagi xalqaro loyiha va dasturlarni amalga oshirishda mamlakatlarning ishtiroki, kredit va savdo munosabatlarini rivojlanishi hisoblanadi.

Xalqaro moliya tizimi turli xildagi jihatlarini o'ziga qamrab oladi. Bularga:

–iqtisodiy kategoriya sifatida – moliyaviy resurslarning fondlari bo'lib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish asosida tashkil etilgan hamda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan umumiy ehtiyojlarni qondirish va jahon darajasida ijtimoiy takror ishlab chiqarishning rentabelligini va uzluksizligini ta'minlash uchun foydalaniladi;


–institutsonal jihatdan – bu banklar, valyuta va fond birjalari, xalqaro moliya institutlari, mintaqaviy moliya-kredit tashkilotlari, xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar va birlashmalar majmui bo'lib ular orqali jahon moliyaviy oqimlarining harakati amalga oshiriladi;

–iqtisodiy munosabat sifatida – bu, jahon bozorida kapital, xizmatlar, tovarlar harakati vaqtida milliy mahsulotlarning qayta taqsimlanishi jarayonida yuzaga keluvchi pul ko'rinishidagi munosabat. Davlatlararo va transmilliy moliya-kredit munosabatlarini o'z ichiga oladi va ularda xorijiy elementlar ishtirokini ifodalaydi.

Xalqaro moliya tizimidagi moliyaviy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishining asosiy omillari quyidagilardan iborat:

1. Jahon bozorlarining vujudga kelishi, ayniqsa tovar bozorlari;
2. Xalqaro mehnat taqsimoti;
3. Iqtisodiy aloqalarning baynalmilallashuvi va globallashuvi;
4. Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida integratsiya jarayonlarining kuchayishi;
5. Ilmiy-texnika taraqqiyoti;
6. Jahon iqtisodiyotida global muammolarning keskinlashuvi.

Xalqaro moliya jahon xo‘jaligining aniqlovchi tizimlaridan biri hisoblanib, milliy va jahon iqtisodiyotiga aniqlovchi ta‘sir ko‘rsatadi.



**1-rasm. Xalqaro moliya munosabatlari va xalqaro qayta ishlab chiqarish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi<sup>2</sup>**

Xalqaro moliya yaxlit tizim sifatida faoliyat ko‘rsatadi va uning elementlariga quyidagilar kiradi:

–Jahon valyuta tizimi – milliy va zaxira valyutalar, xalqaro jamoaviy valyutalar, o‘zaro konvertirlash shartlari, valyuta pariteti, valyuta kursi, valyuta kurslarini tartibga solishning milliy va xalqaro mexanizmlaridan tashkil topgan;

–Xalqaro hisob-kitoblar – moliyaviy instrumentlar, ishlab chiqarish omillari, tovarlar harakati, shuningdek, xalqaro hisob-kitoblar bilan bog‘liq barcha operatsiyalarni aks ettiruvchi to‘lov balansiga xizmat qiladi;

–Xalqaro moliya bozorlari va muayyan moliyaviy instrumentlar savdosi mexanizmlari – valyuta, kredit, qimmatli qog‘ozlar;

–Xalqaro soliqqa tortish – pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish metodi sifatida;

Jahon iqtisodiyotining tizim sifatidagi faoliyati tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining harakati bilan bog‘liq. Ushbu bog‘liqlik asosida xalqaro moliya munosabatlari yuzaga keladi.

## 1-jadval

Jahon iqtisodiyotiga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning rivojlanish dinamikasi<sup>3</sup>

Ko'rsatkichlar	Joriy baholardagi qiymati, mlrd. AQSh doll.					2021 yilda 1990 yilga nis. o'zgarish, marta
	1990 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish	205	1919	1700	1495	1540	7,5
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni chetga chiqarish	244	1550	1601	986	1314	5,4
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi	449	3469	3301	2481	2854	6,4

7

XX asrning 90 yillarida jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining hajmi 449 mlrd. dollarni tashkil etgani holda, ushbu ko'rsatkich 2021 yilga kelib 2,8 trln. dollarga etdi. Mazkur holat, mamlakatlar iqtisodiyotiga, shuningdek, xalqaro kapital oqimiga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

XXI asrning o'tgan davrida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jahonda rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Xususan, jalb etilgan, chetga chiqarilgan va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 2021 yilga kelib 1990 yilga nisbatan 5-7 martaga ortgan. Biroq shu bilan birga, 2021- yilda dunyo miqyosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmi 2020 yilga nisbatan 3 foizga yoki 45 mlrd. AQSh dollariga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni chetga chiqarish hajmi esa 328 mlrd. AQSh dollariga oshgan, shuningdek, dunyo bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 373 mlrd. AQSh dollarga oshgan.

Jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmining oldingi yillardagi ko'rsatkichga nisbatan pasayishiga transchegaraviy birlashish va qo'shib olishlar (mergers and acquisitions, M&A) hajmining qisqarishi ta'sir ko'rsatgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar faollashuvining sabablari va harakatlantiruvchi kuchlari quyidagilardan iborat:

- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yordamida milliy bozorlarda monopolistik foyda olishning mumkinligi;
- tashqi savdoga nisbatan qo'shimcha foyda olish imkoniyati;
- transmilliy korporatsiyalarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni eltuvchilari sifatida maydonga chiqishi;

–to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlar ehtiyojining keskin o‘shishi;

–retsipient-mamlakatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarning shakllanishi.

2021 yildagi dunyo bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va chetga chiqarish darajasining o‘zgarishiga muayyan omillar ta‘sir ko‘rsatgan.

AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya kabi mamlakatlar xalqaro bozordagi asosiy investorlar bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar taklifini shakllantiradigan mamlakatlar hisoblanadilar. Jumladan, 2021 yilda xorijga chiqarilgan jami to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning 9,5 foizi AQSh, 5,8 foizi Kanada, 7,5 foizi Germaniya, 17,3 foizi Yaponiya, 2,4 foizi Buyuk Britaniya, 3,0 foizi Fransiya, 9,5 foizi Niderlandiya hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay investitsiya muhitini yaratgan mamlakat Xitoy hisoblanadi. 2021 yilda Xitoy iqtisodiyotiga jalb etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 141 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgani holda 2020 yilga nisbatan 4 mlrd. AQSh dollariga oshgan.

Jahon moliyaviy arxitekturasi holatiga va xalqaro moliya tizimi barqarorligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillardan yana biri sifatida xalqaro valyuta bozori namoyon bo‘ladi.